

**VOYAGA YETMAGANLAR TARBIYASIDA VA ULAR BILAN
ISHLASHDA MAKTAB PSIXOLOGINING O'RNI VA VAZIFALARI**

Iydiboyeva Guljahon Nasrullayevna

Navoiy viloyati, Nurota tuman 33-umumta'lim maktabi psixologi

iydiboyevag@gmail.com

+998938622791

***Annotatsiya.** Mazkur tezisni tahlil qilish jarayonida yosh avlodning ulg'ayib kamol topishidagi ijtimoiy-axloqiy hamda psixologik munosabatlarning uyg'unligiga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiqod jarayonida maktab amaliyotchi psixologlarining voyaga yetmagan o'smirlar bilan ishlashdagi roli, mexanizmlari, hamda ish olib borish usullari hamda vazifalari to'g'risida mulohazalar keltirildi.*

***Kalit so'zlar:** voyaga yetmaganlar, maktab psixologi, o'smir, mexanizmlar.*

KIRISH.

Hozirgi rivojlangan jamiyatda va insoniyatning taraqqiyot bosqichida odamlarning hayot kechirishi, turmush tarzi, o'qishi va mehnat faoliyatida qanchalik afzalliklar hamda keng imkoniyatlar yuzaga kelgan bo'lmasin, shu barobarida turli-tuman muammolar ham shakllanayotganligini tan olish zarur. Mazkur muammolarning aksariyati insonlar hayoti va faoliyatiga daxldor bo'lganligi uchun psixologik muammolar hisoblanadi. Shu bois, har bir muammoni yechishda psixologik bilimlarga tayanish yaxshi samara berayotganligi insonlar hayoti va jamiyat taraqqiyotida ko'p bora kuzatilgan.

Zero, farzandning oiladagi tarbiyasi, uning maktabdagi ta'limi hamda kelajakda o'z yo'lini topib ketishiga panja orasidan qarab, faqatgina ularning moddiy ta'minoti bilan ovora bo'lib qolayotgan ota-onalar, tarbiya masalalariga e'tiborsiz qaralgan vaziyatda yuzaga keladigan ko'ngilsizliklar, u keltirib chiqaradigan zararli oqibatlar hanuzgacha uchrab turibdi.

Buyuk islomshunos faylasuflardan biri "Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho

gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o'rgatilsa, shu bilan o'sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga ota-onasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo'ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o'z holiga tashlab qo'yilsa, oxir-oqibat halok bo'ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo'lganlarning gardaniga tushadi" degan purma'no fikrlarni aytgan edi.

ASOSIY QISM.

Bugungi globallashuv davrida doimo huquqiy muammo bo'lib kelgan huquqbuzarliklar nafaqat ijtimoiy muammo, balki psixologik muammo hamdir. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarga oid qonunlar uzoq vaqtdan beri shakllangan bo'lsa-da, ular ham vaqti-vaqti bilan o'zgartirilib boriladi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi - voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi. Bu borada maktablarda faoliyat yuritayotgan psixologlarning o'rni beqiyosdir.

Hozirgi davrda tarbiyasida, muammolar shakllangan maktab o'quvchilari uchun psixologik xizmat ko'rsatishning beshta yo'nalishi amaliyotda keng joriy etilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Psixologik maorif va ma'rifat;
2. Psixodiagnostika;
3. Psixoprofilaktika;
4. Psixokorreksiya va psixik rivojlantirish;
5. Psixologik maslahat

Psixologik xizmat ko'rsatishning mazkur yo'nalishlari psixoterapevtik xarakterga ega bo'lib, insonlar hayoti, turmush tarzi va mehnat faoliyatiga daxldor muammolarni yechishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Insonlarning turmush tarzida, oilaviy munosabatlarda, ayniqsa, yoshlar hayoti va ta'lim tizimida, umuman,

ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha sohalarida psixologik xizmat ko'rsatish hamda psixoterapevtik jarayonni amalga oshirish ko'p jihatdan har bir inson uchun xos bo'lgan individual psixologik xususiyatlarni o'rganish, milliy- madaniy, milliy-psixologik hamda hududiy shart-sharoitlarni e'tiborga olish bilan uzviy bog'liqdir. Tadqiqotlarimiz maqsadiga ko'ra psixologik xizmat ko'rsatish obyektlarini atroflicha o'rganish natijalariga ko'ra, psixoterapevtik yo'nalishlar uchun xarakterli bo'lgan muammolar ko'pincha quyidagi omillar (sabablar) ta'sirida o'smirlarda shakllanishi kuzatildi:

-o'smirlarga xos zarur sifat va fazilatlarning yetarli darajada shakllanmaganligi;

-hayotda to'g'ri yo'nalish ololmaganligi;

-o'zida shakllanayotgan kamchiliklarni payqamaslik;

-o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaslik;

-o'ziga (o'z imkoniyatlariga) ishonmaslik;

-yon atrofida gilar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlaridan qanoatlanmaslik;

-o'zaro tushunmaslikning kelib chiqishi;

-bezovtalik darajasining oshishi;

-boshqalar faoliyatiga, narsa va voqealar rivojiga to'g'ri baho bera olmaslik;

-odamlar bilan nizolar chiqishiga yo'l qo'yish;

hamkorlikda ishlashiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

O'smirlar xulq-atvori va hayotida yuzaga keladigan muammolarni shakllanish qonuniyatlarini psixologik tahlil qilish, unga nisbatan zarur tarbiyaviy, psixologik chora-tadbirlar belgilash va ularni amalga oshirish, natijalarni tahlil qilish hamda asosli qarorlar qabul qilish bosqichlari albatta, psixologik xizmat vakillarining savodxonligiga va maktab, ota-ona hamda jamoatchilikning muntazam hamkorligiga bog'liqdir.

Maktab psixologlarining asosiy vazifalaridan biri, har bir o'quvchi kesimida, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida psixologik muhitni yaxshilash, voyaga yetmaganlar, ya'ni "inqiroz yoshida" bo'lgan o'smirlar orasida nafaqat atrofda gilar, balki jamiyatga bo'lgan ijobiy qarashlarni shakllantirish, muammoli

o'quvchilar bilan ularning o'zlari hamda ota-onasi bilan uzviy hamkorlik ishlarini maktab ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari bilan birgalikda olib borishlari lozim. Shuningdek, voyaga yetmaganlar o'rtasida turli g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar, ulardagi addiktiv xulq-atvor, asotsial xulq-atvor, suisidal xulq-atvor kabilarning oldini olish: Addiktiv xulq-atvor (ingl. Addiction-qaramlik) - insonning muayyan turdagi harakat yoki holatga nisbatan qaramligi. Misol uchun, psixotrop vositalarga, internetga, pornografik materiallarga qaramlik; Asotsial xulq-atvor (ingl. Asocial-jamiyat talablariga zid,) – insonning jamiyatda o'rnatilgan tartib va qoidalarga zid bo'lgan, ma'naviyatsiz va huquqqa zid xulq-atvori. Ushbu xulq-atvor ko'p hollarda uydan ketib qolish, "o'z dunyosiga" bekinib olish, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olmaslikda, o'zini-o'zi o'ldirishga suiqasd qilishda namoyon bo'ladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, voyaga yetmaganlar orasida turli noxush holatlar hamda huquqbuzarliklarning oldini olishda tizimdagi barcha mas'ullar bilan bir qatorda, ota-onalar ham hamkorlikda ish olib borishi lozim. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida o'smirlar xulq-atvorida uchraydigan salbiy o'zgarishlarga zamin yaratuvchi shart-sharoitlarni aniqlash bilan bir qatorda ota-ona, o'qituvchi, maktab psixologi va ma'naviyat-ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari bilan barkamol yoshlarni tarbiyalash uchun yaqindan hamkorlik o'rnatish zarurligi aniqlandi. Axloqiy-ma'naviy tarbiyaga xos ustuvor vazifalarni izchil va og'ishmay amalga oshirish bilangina o'smirlarda shakllanish ehtimoli bo'lgan jinoyat motivlari va salbiy hatti-harakatlarni oldini olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 472-sonli qarori.
2. Мирзиёев М.М.–“Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. - Т: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. 143-144 б

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 12 iyuldagi "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-sonli qarori.